Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning shaxsiy xislatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish ularning turli o'quv-bilish, amaliy, ijtimoiy faoliyatlari tajribasiga tayaniladi. Shuning uchun ham ta'lim standartlarida ta'limning faol, amaliyotdagi mazmuni, real hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladigan bilim, malaka va ko'nikmalarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq.

Boshlang'ich ta'limning o'ziga xos xususiyati ham bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi, ijtimoiy tajribasi, psixofiziologik rivojlanishi bir xil emasligida bolib, shunga ko'ra har bir o'quvchining ijodiy qobiliyatini va o'ziga xos individualligini namoyon etishga sharoit yaratishdan iborat. O'quv materialini taqdim etishning asosiy darajasida o'quv materiali har qanday o'quv yurti har bir o'quvchi uchun taqdim etishi kerak bo'lgan ta'limning asosiy mazmuni ochib beriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'zlashtirish muammosi chet ellik ilmiy tadqiqot ishlarida ham o'z aksini topgan. Dissertatsiya ishida biz chet el olimlarining boshlang'ich ta'limni tashkil etish metodikalarining pedagogik jihatlari aynan shu maqsadda tahlilga tortildi. Jumladan, Finlyandiya boshlang'ich maktablarida giperaktiv bolalar va idrok etish qobiliyati buzilgan bolalarga katta e'tibori ibratlidir. Asta-sekin, o'yinlar va individual mashg'ulotlar yordamida notinch o'quvchilar jamoaviy ishlarga muloyimlik bilan o'rgatilishi fin ta'limining yetakchi xususiyatlaridandir. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining imkon qadar ko'proq vaqtni ochiq havoda o'tkazishi, har bir tanaffusda ko'chaga chiqazilishi salomatlikni ko'zlab qilinganligi bilan e'tiborga loyiq.

Boshlang'ich sinflarda dars tarkibini tashkil etish uchun har bir turdagi darsning tuzilishini to'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Darsning tuzilishi moslashuvchan

bo'lishi, o'qituvchining oldida turgan pedagogik muammolarni hal qilishga ijodiy yondashish zarur. Darsning tuzilishi turli bosqichlardan iborat bo'lib, ularning ketma-ketligi va ular orasidagi bog'lanishlarni tashkil qiladi. Dars bosqichlarining xarakteri ushbu didaktik maqsadga muvaffaqiyatli va eng qisqa yo'l bilan erishish uchun ma'lum bir turdagi o'quv mashg'ulotlarida erishish lozim bo'lgan asosiy didaktik maqsad va vazifalar bilan belgilanadi. Ushbu vazifalarning mohiyati va ketma-ketligi ma'lum bir turdagi darsda olib boriladigan ta'lim jarayonining mantig'iga bog'liq. Darsning tuzilishida quyidagi elementlar alohida hisobga olish mumkin: tashqi konstantalar (dars bosqichlari) va ichki o'zgaruvchanlik (metodlar, usullar, vositalar)ni to'g'ri talab etiladi.

Asosiy didaktik maqsadga muvofiq har bir dars turi o'ziga xos makrostrukturasiga ega bo'lib, u o'quv materialining mazmuniga, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligiga, o'quv jihozlarining xususiyatlariga qarab qisman o'zgarishi mumkin. Har bir turdagi darsning mikrostrukturasi o'zaro bog'liq bo'lgan pedagogik maqsadlarning oqilona ketma-ketligini ta'minlaydigan usullar, metodlar va o'quv vositalari majmuasini o'z ichiga oladi.

“Metod” yunoncha so'zdan olingan bo'lib, “bilish va tadqiqot yo'li”, “nazariya”, “ta'limot” kabi ma'nolarni bildiradi” [8; 613-b.]. Falsafiy va didaktik ma'nolarni anglatuvchi mazkur tushuncha jamiyat va tabiat hodisalarini kuzatish orqali voqelikka ilmiy nuqtai nazardan yondashish vositasida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

“O'quv vositasi” birikmasidagi “vosita” arabcha so'z bo'lib: “chora, tadbir, usul”, shuningdek, “o'rta, o'rtadagi” ma'nolarini bildiradi. O'qituvchi ta'limiy maqsadga erishishga yo'naltirilgan ko'rgazmali qurollar, narsa-predmetlar ham ta'limiy vosita sanaladi.

Boshlang'ich ta'limda yangi bilimlarni o'zlashtirish o'quv mashg'ulotlarining taxminiy tuzilmasi quyidagisha:

1. Uy vazifasini tekshirish, asosiy bilimlarni yangilash va boyitish.
2. Darsning mavzusi, maqsadi, vazifalari va ta'lim faoliyati motivatsiyasi haqida ma'lumot berish.
3. Yangi materialni idrok etish va birlamchi xabardorlik, o'rganish ob'ektlaridagi aloqalar va munosabatlarni anglash.
4. Bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, ularni turli sharoitlarda qo'llash.
5. Dars va uy vazifalarini yakunlash.

Ulardan umumlashtiruvchi o'quv mashg'ulotlarida ish turlari xilma-xil bo'lib, illyustrativ materiallar (misollar, rasmlar)ni tahlil qilish hamda o'quvchilarning og'zaki javoblari asosida shakllantiriladi. Umumlashtiruvchi o'quv mashg'ulotlari mustaqil fikrlash, tafakkurini rivojlantirish, nutqini o'stirishda ayniqsa qo'l keladi.

Boshlang'ich ta'limda bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darsini tashkil etishda darsida quyidagilarga etibor berish lozim:

- 1) uy vazifalarini tekshirish, o'quvchilarning asosiy bilimlari va amaliy tajribalarini yangilash va boyitish;
- 2) mavzuni, darsning maqsad va vazifalarini to'g'ri belgilash va maktab o'quvchilarining motivatsiyasini ku'shayttirish;
- 3) yangi materialni o'zlashtirishda kirish mashg'ulotlarida foydalanish;
- 4) o'zlashtirilgan bilimlarni birlamchi sinov mashqlarida qo'llash;
- 5) o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni yangi sharoitlarda ijodiy tatbiq etish;

6) dars mazmuni va uy vazifasi yuzasidan qisqacha ma'lumo berish.

Boshlang'ich ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llash orqali darslarni to'g'ri tashkil etish o'quvchilarning nostandart vazifalarni hal qilishda:

1) o'quvchilarning uy vazifalarini tekshirish, amaliy topshiriqlarni bajarishlarida asosiy bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llashlariga erishish;

2) o'quvchilarining ta'limiy faoliyat motivatsiyasi, mustaqil ishlashlarining maqsad va vazifalari, mazmuni, tuzilishi, amaliy ahamiyati bilan tanishtiriladi. Demak, o'quvchilarning uy vazifalarini bajarish ushuni tayyorlangan o'quv topshiriqlarini yaratish va ularni baholashda didaktik talablarga muvofiq tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish muammolarini tadqiq qilish jarayonida o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish, bilimlarni chuqur va mustahkam o'zlashtirishlari, erkin va mustaqil ijodiy fikr yuritishlarini rivojlantirish zaruriyati aniqlandi. Tadqiqotlarimiz mobaynida Nukus shahridagi 22- va 38-son umumta'lim maktablari, Qorao'zyak tumanidagi 26- va 31-son, Qonliqo'l tumanidagi 1-son, Navoiy viloyati Zarafshon shahridagi 11-son, Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi 12-son maktablarda tajriba-sinov ishlari olib borildi. Dastlabki aniqlashtiruvchi tajriba mobaynida boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan so'rovnoma tashkil etildi. So'rovnoma natijalarida ota-onalarning boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga beparvo ekanligi, o'quvchilarning uyga vazifalarni bajarishda ota-onalarning ishtiroki kamligi, shuningdek, ota-onalarning o'qituvchilar bilan hamkorligi sust ekanligi, maktab formasiga tegishli kelishmovchiliklar kelib chiqayotganligi singari muammoli holatlar uchrab turishi ta'kidlangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'zlashtirishiga ta'sir qilish holatlari o'rganilganida o'qituvchilar tomonidan o'quv materiallarining juda qiyin tuzilgani, topshiriqlarning ko'p berilishi oqibatida dars jarayonida vaqt taqsimotida muammolar borligi, dars samaradorligi o'quvchilar sonining ko'p ekanligi ham ko'rsatib o'tilgan. Topshiriqlarni ota-onalar bilan birga bajarish imkonini beradigan tarzda tayyorlash va ota-onalarning ham mas'uliyatini oshirish takliflari aytilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda «Tarbiya» fanini o'qitishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurligi, topshiriqlarni tayyorlash va bilimlarni baholashda o'quv materiallarining murakkabligi darajasini hisobga olishlari lozimligi haqida fikrlar bildirildi. Baholash va baho qo'ymaslik masalalari hozirgi kunda bahsli masala ekanligi keltirildi.

Ushbu taklif va tavsiyalardan kelib chiqqan holda o'quvchilarda o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirishning yuqori darajasi uni muntazam ravishda mustaqil faoliyatga jalb qilish orqali rivojlantirish, maxsus turdagi o'quv topshiriqlarini komp'yuterli ishbop o'yinlar, darsliklar va boshqa adabiyotlar bilan birga amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

Boshlang'ich ta'limda o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'zlashtirishning pedagogik nazariy jihatlari hamda bu borada tarixiy tajribalar, pedagog- psixologlarning ilmiy qarashlarini yoritildi. Tadqiq qilinayotgan muammo boyicha dunyo tajribalari o'rganilib, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'zlashtirishlarining o'ziga xos xususiyatlari va shart-shaoyitlari, hozirgi paytda foydalanilayotgan dastur va darsliklarning tahliliy natijalari hamda amaliyotdagi holati masalalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'zlashtirishini rivojlantirishda maxsus pedagogik tizim yaratilishini ilmiy-uslubiy jihatdan asoslashga imkoniyat berdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'zlashtirishi bo'yicha tajriba-sinov ishlari natijalari uning ko'p

qirraliligi, o'quvchilar soni va o'rgatuvchi-nazoratli topshiriqlar majmuining xilma-xilligi bilan belgilanadi. Eksperimentlarning mazmuni, shakl va yo'llarini optimal holda loyihalash uchun o'quv elementlari mohiyatini o'quvchilarga taqdim etish yo'llarini aniqlashga harakat qildik. Buning uchun tajribada qatnashayotgan o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish darajasini, bilim olishga intilishiga ta'sir etuvchi omillarni ham o'rganish nazarda tutildi.

Ma'lumki, har qanday fanni bosqichma-bosqich o'rganishda unga tegishli o'quv jarayonini tashkil etish hamda mazmunini boyitish bozor iqtisodiyoti sharoitida kreativlik va tahliliy tafakkurni rivojlantirish bilan aloqadorlikda amalga oshiriladi. Maktab ta'limida bunday rivojlanishi o'quvchilarga beriladigan qadriyatlar bilan bog'liq bilimlar hamda faoliyat usullari yoki ichki manbalardan foydalanish samaradorlik darajasiga ega bo'ladi. O'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish natijalarini baholashning o'z me'yori, qoidasi va me'zonlari mavjud. O'quv mashg'ulotlarini sifatli idrok etishni rivojlantirishda tuzilish asosi (maqsad, tamoyil, mazmun va hokazolar) da o'quvchiga "bilim berish" dagi har qanday ta'lim turi tizimi bilan o'xshashdir. Biroq o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirishiga yordam beradigan quyidagi qoidalardan o'quvchining maqsadga qaratilgan qobiliyatining rivojlanish darajasi nazorat va baholashga daxldor bo'lgan majburiy standartlarga kiritiladi.

O'quvchining mashg'ulotlarini o'zlashtirishida bilishga doir faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan ilmiy-tashkiliy masalalarni o'rganish maqsadga muvofiq. Mashg'ulotlarini o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

a) fundamental ta'limiy ob'ektlar o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish faoliyatining ob'ekti ekanligi;

b) o'quvchining shaxsiy ijodining hajmi umumiy o'quv jarayonida 20-25 foizni tashkil etishi;

v) umumta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim o'quvchisining rivojlanish darajasiga, o'qituvchi va ta'lim strategiyasi va maqsadiga qarab belgilanishi, biroq o'quvchi mahsulotining hajmi uning individual dasturi bo'yicha ta'lim faoliyati hajmidan kam bo'lmasligi.

O'quvchilar uchun tayyorlangan mashqlar natijasi unga qoyilgan tashqi standart talablaridan ham yuqorilashi kutiladi. O'quvchilar erishgan natijalar jamoa bo'lib muhokama qilinadi, undan keyin tashqi madaniy-tarixiy o'xshashliklar bilan qiyoslanadi. O'quv jarayonining tuzilishi qanday natijalar va qanday shaklda nazorat qilinishiga bog'liqligi o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirishda ta'lim jarayoni faoliyati natijalari ikki tomonlama tashqi va ichki xarakterga ega. O'qituvchilarning ta'limda erishgan yutuqlari sifati hisoblanadi. Ta'lim shaxsning asosiy xususiyati sifati birinchi navbatda uning ichki rivojlanish natijasi bilan aniqlanadi.

O'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish ishlarini bashorat qilish vaziyatli yondashuv, ya'ni o'quvchilarni maxsus tashkil etilgan yoki tabiiy ta'lim vaziyatlaridan foydalanish yordamida bashoratlash samarali hisoblanadi. Bunda ta'lim natijalarining diagnostikasi, jumladan, o'quvchi qobiliyatining rivojlanish darajasini aniqlash o'qituvchining o'quvchida hosil qilinayotgan ko'nikmalari bilan aniqlanadi.

Dars jarayonining samaradorligini aniqlashda o'quvchilarning bilimi mahsuldorligini baholash usullari tahlil qilinadi. Bunda asosan pedagogning maqsadli ta'limiy ko'rsatmalari tahlil elementlarini aniqlashga yordam beradi. Masalan, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifati quyidagi usullar bilan baholanadi:

a) javobdagi ko'nikmalarning soni bo'yicha;

- b) javob elementlarining farqi bo'yicha;
- v) javobning o'quvchining o'zi yoki sinfdoshining ishiga nisbatan yangiligi bo'yicha;
- g) yaratilgan obraz, ramz yoki ifodaning lo'nda va ixchamligi bo'yicha;
- d) javob uchun foydalanilgan imkoniyatlarning ko'pqirraligi bo'yicha;
- e) olingan natijalarning amaliy ahamiyati foydalanishi bo'yicha tahlil qilish maqsadga muvofiq.

O'quvchining o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish sifati o'quv yili davomida o'quvchining ta'limiy sifatlari ijobiy tomonga o'zgarish taqdirda "yuqori" deb baholandi, bu uning eng ko'p imkoniyatga egaligini namoyon qiladi; agar o'quvchining imkoniyatida o'zgarish to'la bo'lmasa "o'rta", o'zgarish sezilmagan taqdirda "past" deb baholanadi. Olingan natijalarni tabaqalashtirish maqsadida besh darajali shkaladan foydalanish samarali bo'lib, unga "o'rtadan yuqori", "o'rtadan past" kabi darajalar ham qo'shiladi. Har xil o'qituvchilar tomonidan aynan bir xil o'quvchilarga oid olingan ma'lumotlar o'rganilganda bu ma'lumotlar ta'lim jarayonining ham yaxlit, ham har bir o'quvchi bo'yicha samaradorligi to'g'risida mulohaza yuritish imkonini beradi. O'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish natijalarini tahlil qilish turli xil ta'lim sohalari uchun yagona bo'lgan mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi. Shkalalarning qo'llanilishi turli xil pedagogik sharoitlarda o'tkaziladigan ta'limning qiyosiy tahlilini ta'minlaydi. O'quvchilarning o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirishining psixologik-pedagogik shart-sharoitlari, ta'lim jarayonida pedagogning o'рни va roli, shuningdek, o'qitishning eng samarali uslublari va ta'lim vositalari shaxsning to'la-to'kis rivojlanishida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bu davrda intellektual rivojlanishini ko'rgazmali-harakatli va ko'rgazmali - obrazli tafakkurdan mantiqiy-mavhum fikrlashga o'ta boshlaydi. Ularning buyumlarni taqqoslashga, o'xshash va farqli tomonlarini bilishga, o'ziga xos xususiyatlarini anglashga aqli yeta boshlaydi. Ammo o'quvchilar mantiqiy xulosa chiqarishga qiynaladilar, ta'riflarni yodlab olishga harakat qiladilar. Shuning uchun boshlang'ich ta'limda ko'rgazmalilik katta ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchining voqea-hodisalarni bevosita idrok qilishdan uning qonuniyatlarini, o'zaro bog'lanishlarini tushunib olishga va bilishga qaratadi, tajribalar o'tkazadi. Bu borada biz «Tarbiya» fani mavzulariga e'tibor qaratdik. Bu ishni amalga oshirishda tahlillarga tayangan holda quyidagicha bir necha pog'onali o'qitish tizimiga asoslandik:

- o'quvchilarning bilimlarini oshirishga psixologik tayyorgarligi;
- taqdim qilinayotgan o'quv materialining idrok qilinishi;
- chet el tajribalariga asoslangan holda innovatsion usullardan foydalanish;
- noana'aviy usullar orqali o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish darajasini aniqlash;

O'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirishda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha butun jahon amaliyotida ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirishning ko'plab variantlaridan foydalaniladi.

Mavzuga oid tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, har bir sohadagi muammolarni hal qilishda muammoni keltirib chiqargan sabablarni o'rganish talab etiladi. Hozirgi davr ta'lim tizimida jahon tendentsiyalarini hisobga olgan holda sohaga tegishli investitsiyalar kiritilishi, ilg'or ta'lim standartlarini joriy etish boshlang'ich ta'limni transformatsiya, konvertatsiya qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi bejiz emas. Barcha sohalarda bo'lgani kabi boshlang'ich ta'lim tizimida ham nazariya amaliyot bilan tasdig'ini topgani singari, amaliyotda muammolar nazariy jihatdan asoslangan bo'lsagina ularni bartaraf etish, sifat va samaradorlikka erishish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni asosida tayanch o'quv rejasini takomillashtirish hamda o'zaro uzviy bog'liq fanlar integratsiyasi hisobiga ularning soniga emas, sifatiga urg'u berishdan iborat [10].

Hozirgi davr boshlang'ich ta'limda keskin o'zgarishlar ro'y berayotgan davr hisoblanadi. Sohaga tegishli ilg'or ta'lim standartlarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar jahon tendentsiyalarini hisobga olib boshlang'ich ta'limni rivojlantirish imkoniyatini bermoqda. Shunga ko'ra tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirishning didaktik shart-shaoyitlarini takomillashtirish bo'yicha oddiydan murakkabga, noma'lumdan ma'lumga tamoyillari asosida o'quv mashg'ulotlarini oson va tez o'zlashtirish, bilish jarayonlarining faolligini ta'minlash orqali har tomonlama pedagogik ta'sirni ilmiy jihatdan o'rganish, ulardan keng foydalanish lozimligi tahlilga tortildi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirishning didaktik shart-shaoyitlarini takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Tajriba-sinov ishlari 2019-2020, 2020-2021, 2022-2023 o'quv yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi 22, 38-son umumta'lim maktablari, Qorao'zak tumanidagi 26, 31-son umumta'lim maktablari, Qonliko'l tumanidagi 1-son, Navoiy viloyatidagi 11-son va Chirchik shahridagi 12-son umumta'lim maktablarida olib borildi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda quyidagi vazifalar belgilandi:

1) boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini o'rganish jarayonidagi mavjud muammolarni aniqlash;

2) boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv va tarqatma materiallar ishlab chiqish;

3) boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv mashg'ulotlarini past o'zlashtirish bilan bog'liq muammolarni barataraf etish maqsadida dars jarayonida didaktik oyinlar orqali bilim, tushuncha va tasavvurlarini takomillashtirish;

4) boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish imkoniyatini oshirishga doir ko'nikmalarini shakllantirish;

5) ota-onalar bilan birga bajaradigan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.

Tajriba-sinov jarayonida davlat ta'lim standartlari, me'yoriy hujjatlari talablarini hisobga olgan holda o'quvchilarda o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish darajalarini aniqlashda Qanlikol tumani 1-son umumta'lim maktabida 4-sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida "Tarbiya" fanidan, "Kitob mening hayotimda", "Oila-baxt qo'rg'oni", "Vatan-bobolardan qolgan bebaho me'ros" mavzularini o'zlashtirishda rasmi topshiriqlardan foydalanildi. Shuningdek, "Biz bir jamoamiz", "Rostgo'ylik, halollik", "Fazilatlar inson ko'rki" mavzulari bo'yicha bolalar ertaklaridan samarali foydalanildi.

Ertaklar vizual tarzda taqdim etilib, o'quvchilarga kichik guruhlarda ishlash imkoni berildi va ertak matni bo'yicha qisqa matnlardagi tasavvurlarini rasm tarzida bayon qilish topshirig'i berildi. Ushbu jarayonda o'quvchilar ertakni ko'rish orqali idrok etib, keyin aqliy operatsiyalarini faol ishga tushirish orqali tahliliy tafakkurni rivojlantirishga erishildi. Ertak haqidagi yakuniy xulosalarini o'z tushunchalari orqali so'zlab berishi o'quvchi nutqining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, nutq yaxshi rivojlansa tafakkur jarayoni ham faollashadi. Biz o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'zlashtirishiga taqdim etilgan topshiriqlar orqali tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha boshlang'ich sinf

o'quvchilaridan olingan so'rovnomalar natijalariga ko'ra ularning javoblarini 3 daraja bo'yicha baholashni maqsad qilib oldik:

Past daraja: Tajriba-sinov ishlari jarayonida berilgan tankidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi topshiriqlarni bajarishda qator qiyinchiliklarga duch keldi, o'ziga ishonchsizlik sezildi.

O'rta daraja. Unga tajriba-sinov ishlari jarayonida ko'rsatilgan topshiriqlarga javob berishga kirishgan, ammo to'liq javob bermagan, savol mohiyatini tushunsalarda yozishda ikkilanishlarga yo'l qo'ygan, topshiriqlardagi savollar haqida umumiy tushunchalarga ega bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari kiritildi.

Yuqori daraja. Unga boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlarning mazmunini tushunish, topshiriqlardagi savollarga aniq javob bergan, o'z fikrlarini mustaqil bayon qilgan, tahlil qilish ko'nikmalariga ega, kreativ fikrlay olgan boshlang'ich sinf o'quvchilari kiritildi. Natija esa quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi (1-jadval):

1-jadval

Tanlangan boshlang'ich sinf o'quvchilari soni va ularning tajriba-sinovlardan so'nggi o'zlashtirish ko'rsatkichlari

№	Respondentlar soni	Tajriba guruhi			Respondentlar soni	Nazorat guruhi			
		Yuqori	O'rta	Past		Yuqori	O'rta	Past	
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri №22-sonli umumta'lim maktabi								
	58	30	12	11	7	28	8	9	11
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri №38-sonli umumta'lim maktabi								
	55	30	13	10	7	25	8	8	9
3.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Kanlikul tumanidagi №1-sonli umumta'lim maktabi								
	52	25	11	9	5	27	7	9	11
4.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Qora'zak tumanidagi 26-sonli umumta'lim maktabi								
	55	25	12	8	5	30	7	10	13
5.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Qora'zak tumanidagi 31-sonli umumta'lim maktabi								
	36	16	7	6	3	20	5	6	9
6.	O'zbekiston Respublikasi Navoiy viloyatidagi 11 - sonli umumta'lim maktabi								
	74	37	15	13	9	37	8	12	17
7.	O'zbekiston Respublikasi Chirchik shahridagi 12 -sonli umumta'lim maktabi								
	64	38	14	17	7	26	7	8	11
Umumiy soni	394	201	84	74	43	193	50	62	81
Umumiy o'rtacha	57	29	12	11	6	28	7	9	12

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, natijalarning ishonchliligini, to'g'riligini tekshirish maqsadida St'yudent Fisher mezonida matematik-statistik tahlil o'tkazildi. Tajriba-sinov o'tkazilgandan keyin olingan ko'rsatkichlar tajriba guruhlariniki nazorat

guruhdagilarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Bunda biz matematik-statistik tahlil qilish uchun o'rtacha umumiy ballni oldik. Nazorat va tajriba-sinov guruhlarining tajriba yakunidagi umumiy ko'rsatkichlari quyidagicha (2-jadval):

2-jadval

Nazorat va tajriba-sinov guruhlarining tajriba yakunidagi umumiy ko'rsatkichlari:

Guruhlar	Respondentlar soni	Javoblari		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	29	12	11	6
Past nazorat guruhi	28	7	9	12

Адабиётлар/Литература/References:

1. Bakiyeva N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Ishonchli hamkor. 2021, 16-b.
2. Давыдов В.В. Психологическая теория учебной деятельности и методов начального обучения, основанных на содержательном обобщении. -Томск: Пеленг, 1992. – 112 с.
3. Давыдов В.В. Лекций по педагогической психологии. – М.: Академия, 2006. – 245 с.
4. Давлетшин М.Г. Замонавий мактаб ўқитувчисининг психологияси. -Тошкент: Ўзбекистон, 1999. - 30 б.
5. Давлетшин М.Г., Дўстмухамедова Ш., Мавлонов М., Тўйчиева С. Ёш даврлари ва педагогик психология. Ўқув методик қўлланма. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2004. – 129 б.
6. Левитов Н.Д. Психология характера. М: Просвещение, 1969. - 424 с
7. Нажмиддинова Г. Бошланғич синф ўқувчилари ўқув-билув фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари: Пед. фан. номз...дисс. – Тошкент: ЎзПФТИ, 2005. – 140 б.
8. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. 5-jild, 2003, - 613 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni. //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son.
11. Эльконин Д.Б. Психическое развитие в детских возрастах. / Под ред. Д.И.Фельдштейна.– Воронеж: НПО "МОДЭК", 1995. – 416 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 9 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).